

**Iqtisodiyot va moliya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining
amal qilishi haqida 2023-yil natijalari bo'yicha
UMUMIY HISOBOT**

**I. Tashkilotning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani
to'g'risida umumiy axborot.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2022-yil 21-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-sonli va 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-sonli Farmonlariga muvofiq, 2023-yil 1-yanvardan Moliya vazirligi negizida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tashkil etilib, Davlat budjeti hamda budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan jami xodimlarining umumiy cheklangan soni tasdiqlandi hamda shtat birliklari qisqartirildi, shuningdek vaqtinchalik tashkiliy tuzilma shakllantirildi (jami 15 400 nafardan ortiq xodimlar).

2023-yil 12-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining o'rinbosarlari hamda maslahatchilarining funksional vazifalari, majburiyatlari, javobgarligi, shuningdek vazirlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmalarining Vaqtinchalik nizomlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 101-sonli buyrug'i bilan boshqarmaning Vaqtinchalik nizomi tasdiqlanib, ijroga qaratildi.

Vazirlikning vaqtinchalik tashkiliy tuzilmasidagi o'zgarishlar natijasida 2023-yil may oyidan ichki nazorat tuzilmasida Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasi, so'ngra 2023-yil oktabr oyidan boshlab Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'lim faoliyati yo'lga qo'yildi.

Hisobot davrida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil etilgan boshqaruv tizimi va mexanizmlar "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi" ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqligi "CERT International" tashkiloti tomonidan tashqi auditdan o'tkazilib, ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikatini qo'lga kiritildi.

2023-yilda vazirlik va uning tarkibidagi 28 nafar xodim Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo'yicha o'qitilib, ISO 37001:2016 xalqaro standarti sertifikatini oldilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturlari va "Yo'l xaritalari" asosida vazirlikka yuklatilgan barcha vazifalar yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, belgilangan muddatlarda amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan tizimli vazifalar qatorida korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar asosida vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta'sirchan mexanizmlari yaratildi, yo'l qo'yilgan korrupsiyaviy holatlar, shuningdek, o'zi rahbarlik qilayotgan sohaga ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli ishlatish uchun shaxsiy javobgarlik belgilandi (Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2023-yil 5-yanvardagi 1-bayoniga ko'ra).

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha nazorat reja ishlab chiqilib, nazoratga olindi hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ma'lumot taqdim etildi.

Davlat dasturlarida belgilab berilgan ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar doirasida quyidagilar vazirlikning rasmiy saytiga joylashtirildi, xususan:

davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi (2013-yil 10-oktabrdagi 198-sonli buyruq, imv.uz/opendata/category/pf-6247-1-ilova-boyicha-malumotlar?page=3);

Bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar hamda vazirlik va uning tarkibidagi tuzilmalardagi barcha bo'sh ish o'rinlariga to'g'ridan-to'g'ri havola davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portalida joylashtirilgan (vacancy.argos.uz/vacancies/vacancy-list?organization=3000).

Byurokratik to'siqlarni, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va inson omilini qisqartirish maqsadida kadrlar bilan ishlash yo'nalishidagi faoliyatini hrm.argos.uz elektron bazasi orqali amalga oshirish joriy qilinib, ishga qabul hujjatlarni rasmiylashtirish, tarkibiy tuzilma, shtatlar, lavozimlar va xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash hamda ularga ishlov berish, kadrlar bo'yicha ma'lumotlarning elektron arxivini yuritish, rahbar kadrlar uchun belgilangan zaxiralarni shakllantirish hamda inson resurslarini boshqarishga oid boshqa raqamlashtirish faoliyati ushbu elektron platformada amalga oshirilmoqda (2023-yil 29-sentabrdagi 193-sht sonli buyruq).

Hisobot davrida davlat xaridlari tartib-taomillarini amalga oshirishda tovarning (ishning, xizmatning) boshlang'ich narxini davlat xaridlarining maxsus axborot portalida e'lon qilingan narxlar asosida shakllantirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatning dastlabki loyihasini ishlab chiqish boshlandi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakatlar rejasi doirasida o'tkaziladigan 5-bosqich monitoring chora-tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish ishlari doirasida dastlabki takliflar ishlab chiqilib, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborildi.

Davlat budjeti jarayonining shaffofligini oshirish hamda davlat budjeti xarajatlarining manzilli va maqsadli sarflanishini ta'minlash borasida:

1) Ochiq budjet (openbudget.uz) axborot portalida doimiy tarzda o'tkazilayotgan davlat moliyaviy nazorati tadbirlari natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni tashqi audit va baholashdan o'tkazish natijalari to'g'risidagi xulosa ham joylashtirib borilmoqda. Bundan tashqari, davlat budjeti hamda davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlarining ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlar ochiq ma'lumotlar portalida (opendata.gov.uz) joylashtirilmoqda.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish va amalga oshirilayotgan ishlarni aniq mezonlar bo'yicha yo'lga qo'yish maqsadida mazkur soha bo'yicha yo'nalishlarni belgilab beruvchi asosiy ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi:

1. Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati (85-sonli buyruq, 2023-yil 31-may);
2. Odob-axloq qoidalar (111-sonli buyruq, 2023-yil 22-iyun);
3. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti (129-sonli buyruq, 2023-yil 10-iyul 1-ilova);
4. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom (129-sonli buyruq, 2023-yil 10-iyul 2-ilova);
5. Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti (129-sonli buyruq, 2023-yil 10-iyul 3-ilova);
6. Korrupsiya holatlari haqida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish va ularni ta'qibga olmaslik kafolati (85-sonli buyruq, 2023-yil 31-may, 5-bob, 32-39 bandlar, https://api.mf.uz/media/menu_attachments/85_buyruk.pdf);
7. Yuzaga kelgan salbiy holatlar va favqulodda hodisalar haqidagi axborotlarni vazirlikka taqdim etish tartibi (84-sonli buyruq, 2023-yil 31-may);
8. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma (129-sonli buyruq, 2023-yil 10-iyul 4-ilova);
9. Kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma (129-sonli buyruq, 2023-yil 10-iyul 5-ilova);
10. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma (133-sonli buyruq, 2023-yil 11-iyul);
11. Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti (129-sonli buyruq, 2023-yil 10-iyul 6-ilova);
12. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish Reglamenti (129-sonli buyruq, 2023-yil 10-iyul 7-ilova);
13. Xizmat tekshiruvlari va o'rganishlarni o'tkazishni tashkil etish to'g'risidagi nizomlar (92-sonli buyruq, 2023-yil 6-iyun);
14. Davlat xaridlari jarayonlarini tashkil etish tartibi (198-sonli buyruq, 2023-yil 10-oktabr);
15. Xodimlarning chet elga chiqish jarayonida korrupsiya va boshqa huquqbuzarlik holatlariga yo'l qolmasligi yuzasidan profilaktik choralar (78-sonli buyruq, 2023-yil 29-may).

III. Xavf-xatarlarni baholash

2023-yilning 18-dekabridan 22-dekabrga qadar vazirlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash o'tkazilgan.

O'tkazilgan tadbir davomida tarkibiy tarmoqlar faoliyatida 2023-yil uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlar 3 darajaga (*yuqori, o'rta, past*) ajratilib baholandi. Natijada, yuqori darajadagi xavf mavjud 3 ta, o'rta darajadagi 6 ta, past darajadagi 419 ta funksiyalar baholashdan o'tkazilib, xavflarni minimallashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-sonli Farmoni hamda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-447-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tashkil etildi.

Ma'muriy islohotlar jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining vaqtinchalik tashkiliy tuzilmalari hamda shtat birliklari tasdiqlandi. Biroq Prezidentimizning tegishli qarorlari bilan vazirlikka yangi funktsiya va vazifalar belgilanishi, ayrim funksiyalarning esa vazirlik tasarrufidan chiqarilishi xodimlar bilan mehnat munosabatlariga hamda shtat birliklarining qayta o'zgarishiga ta'sir ko'rsatdi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining:

"Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 2-sentabrda PQ-291-sonli qaroriga asosan, Iqtisodiyot va moliya vazirligining kapital bozorini, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi faoliyatini tartibga solish, korporativ boshqaruvni rivojlantirish, shuningdek, sug'urta tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha vazifa, funktsiya va vakolatlari Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga o'tkazildi.

"Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 14-sentabrda PQ-306 sonli qaroriga asosan, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha yagona davlat siyosatini yuritish va davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimliklar, tijorat banklari, Jamg'arma va markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tuzilmasida Kichik va o'rta biznes rivojlanishini tahlil qilish, qo'llab-quvvatlash va sohada davlat siyosatini muvofiqlashtirish departamenti tashkil etildi.

"Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 12-oktabrda PF-169-sonli Farmoniga asosan, davlat sanoat siyosatini amalga oshirish hamda sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha vazifa va funksiyalar Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yuklanadi.

Yuqoridagi keltirib o'tilgan o'zgarishlar yakuni bo'yicha, vazirlikning tuzilmasi va nizomi, shuningdek, tarkibiy bo'linmalarining nizomlari tasdiqlangandan hamda ushbu nizomlarga asosan lavozimlarga oid malaka talablari, funksional majburiyatlar to'liq ishlab chiqilgandan so'ng korrupsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar ro'yxati hamda korrupsiyaga qarshi

kurashish dasturi ishlab chiqilib, xavf-xatarlarni baholash bo'yicha ishlar yakuniga yetkaziladi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillari

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ishlar doirasida vazirlik markaziy apparati va uning hududiy boshqarmalari xodimlaridan jami **3 699 ta** manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalari olindi.

Hisobot davrida manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmagan.

Korrupsiyaga qarshi qoidalar tashkilot shartnomalariga kiritish

Korrupsiyaga qarshi qoidalar tashkilotning barcha xo'jalik shartnomalariga (100 %) kiritilgan.

Kontragentlarni tekshirish

Davlat xaridlari jarayonlarida inson omili ishtirokini kamaytirish maqsadida tanlash va tender savdolari majburiy tartibda elektron shaklda o'tkazilmoqda.

Hisobot davrida insofsiz ijrochi bilan shartnoma tuzish, xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq korrupsiyaviy xatarlarini kamaytirish, xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash, kontragent bilan shartnoma tuzish to'g'risida qaror qabul qilish maqsadida, tizimda xarid qilish tartib-taomillari, jumladan, to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzishda ishtirokchilarni majburiy tekshirishning asosiy talablari, tartibi va usullari doirasida 146 ta shartnoma monitoringi amalga oshirildi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Vazirlik tizimiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma (133-sonli buyruq, 2023-yil 11-iyul) ishlab chiqilgan bo'lib, ularga korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda, har bir xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha majburiyatlar qayd etib borilmoqda.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Jami o'qitilgan xodimlar soni 1573 nafarni tashkil etadi, xususan vazirlik markaziy apparati – 659. Qolgan 914 nafar xodimlar Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi o'quv markazi tomonidan malaka oshirish kurslarida tahsil olgan. O'quv rejasiga maxsus modul (bo'lim) kiritilgan bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorati (2 soat), davlat xizmatining tavsifi (2 soat) va odob-axloq

qoidalari bo'yicha (2 soat) mavzular asosida xodimlar o'qitilib kelinmoqda. O'quv markazida 2023-yilda jami 914 nafar vazirlik tizimi mutaxassislari malakasini oshirdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati boshqarmasi mutaxassislari tomonidan bugungi kunga qadar viloyat iqtisodiyot va moliya, Davlat moliyaviy nazorati, G'aznachilik xizmati boshqarmalari hamda Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining viloyat boshqarma va tuman/shahar bo'limlari xodimlari ishtirokida "Korrupsiya – jamiyat kushandasi" mavzusida 200 dan ortiq o'quv seminarlari tashkil etildi.

Seminar ishtirokchilariga vazirlikning 2023-yil 31-maydagi 84-sonli va 85-sonli buyruqlari bilan tasdiqlangan "Yuzaga kelgan salbiy holatlar va favqulodda hodisalar haqidagi axborotlarni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish tartibi" va "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati" hamda 6-iyundagi 92-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Tizimda xizmat tekshiruvi va o'rganish o'tkazish tartibi"ning mazmun-mohiyati yetkazildi.

Xususan, tizimda korrupsion holatlarga yo'l qo'yimaslik, qonunbuzilishi, odob-axloq normalariga rioya qilmaslik, korrupsiya va boshqa huquqbuzarlik holatlari xususida vazirlikning xabar berish mumkin bo'lgan aloqa kanallari (*ishonch va boshqa telefon raqamlari, telegram tarmog'idagi maxsus bot, vazirlikning rasmiy veb-saytidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limidagi alohida anonim xabar berish kanali, vazirlik elektron pochta manzillari*) yo'lga qo'yilgani, xodimlarning haq-huquqlari, murojaatchining ta'qib qilinmasligi xususida axborot berildi.

Siyosatning korrupsiyaga qarshi talablarini buzish ehtimoli haqida xabar bergan shaxslarning ta'qib qilinishiga yo'l qo'yilmasligi kafolatlanishi, ma'lumotlar tasdiqlansa, korrupsiya faktlari to'g'risida vijdonan xabar bergan xodimlar rag'batlantirilishi mumkinligi ta'kidlandi.

Shuningdek, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar hamda vazirlikning hududiy bo'linmalarida yuzaga kelgan salbiy holatlar va favqulodda hodisalar haqidagi axborotlarni vazirlikka taqdim etish borasida buyruqda belgilangan normalar batafsil tushuntirildi.

Vazirlik bo'g'inlarida xizmat tekshiruvlari va o'rganishlar o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda Mehnat kodeksiga muvofiq ishlab chiqilgani alohida qayd etildi.

Xodimlarda korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirish va unga qarshi ayovsiz kurashish xodimlarining eng ustuvor vazifasi ekanligini yetkazish bo'yicha profilaktik tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, xodimlarning mehnat faoliyatini olib borishi, xizmat safarlari va chet elga chiqish jarayonlarida jami 61 nafar xodimlar bilan huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan preventiv profilaktik chora-tadbirlar (suhbatlar, instruktaaj) o'tkazildi.

2023-yilning 1-dekabr kuni vazirlikda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2023-yil 23-avgustdagi 10-sonli

bayonnomasi bilan “9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan aksilkorrupsiya oyligi doirasida o‘tkaziladigan tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash maqsadida “Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi” shiori ostida tadbir tashkil etildi.

Tadbirda Iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosari Abdulaziz Xaydarov vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot berdi.

Shuningdek, Davlat xaridlari siyosati departamenti rahbari tomonidan vazirlikda davlat xaridlariga oid “Korrupsiyasiz soha” loyihasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, davlat xaridlarida korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik, qonun va sohadagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablari buzilishi holatlariga oid ma’lumotlarni ochiq axborot manbalarida e’lon qilib borish asosida amalga oshirilishi aytib o‘tildi.

Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi direktorining 2023-yil 6-yanvardagi Pensiya jamg‘armasining hududiy boshqarma va tuman/shahar bo‘lim xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha (Zoom platformasi orqali) o‘quv seminarlar tashkil qilish yuzasidan tasdiqlangan rejaga muvofiq o‘quv seminarlari o‘tkazilgan.

Shuningdek, 2023-yil 5-dekabr kuni budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi apparatining barcha xodimlari, Pensiya jamg‘armasi Toshkent shahrining barcha xodimlari, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining mas’ul xodimi R. Yuldashev ishtirokida “Korrupsiyaga qarshi kurashish va komlayens nazorat” mavzusida tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar va xodimlari bilan ZOOM platformasi orqali video seminar o‘tkazilgan.

Pensiya jamg‘armasining hududiy boshqarma va tuman/shahar bo‘limlari xodimlari uchun muntazam ravishda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va diniy idoralar vakillari bilan birga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi yuzasidan seminar-treninglar tashkil etib kelinmoqda.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar

Vazirlik rasmiy saytida korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan alohida aloqa kanallari (Ishonch telefoni – 71 203 31 71, 71 203-50-50 (01117); elektron pochta – info@imv.uz; telegram bot – [@IMV_antikorrupsiya_bot](https://t.me/IMV_antikorrupsiya_bot)) joylashtirildi.

Telegram messengerida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan alohida aloqa kanali – [@IMV_antikorrupsiya_bot](https://t.me/IMV_antikorrupsiya_bot) telegram boti ishga tushirildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligida korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari (rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa, ishonch telefoni, elektron manzil) orqali, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslardan tushgan barcha murojaatlar qonunchilikda belgilangan tartibda o‘rganib chiqilgan (ko‘rib chiqish natijalari ilova qilinadi).

2023-yilda korrupsiya faktlariga doir murojaatlar kelib tushmagan.

VII. Monitoring va nazorat

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli qarori talablariga muvofiq, vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar, tahlillar, erishilgan natijalar to'g'risidagi axborotlarni "E-anticor.uz" platformasiga o'z vaqtida, to'liq va sifatli kiritilishini ta'minlash amalga oshirilmoqda.

VIII. Xulosalar

Vazirlik va uning tarkibidagi tuzilmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining umumiy holati, mazkur soha bo'yicha asosiy yo'nalishlar yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Komplayens nazorat bo'limi tomonidan sohaga taalluqli barcha jarayonlar bevosita nazoratga olingan. Tarkibiy tuzilmalarning mazkur sohadagi faoliyati yuzasidan muntazam ravishda yo'riqnomalar, maslahatlar va amaliy yordamlar berib kelinmoqda.

IX. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Qonun, ushbu masalaga oid Davlat dasturlari va boshqa dasturlarning samarali ijro etilishini ta'minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi rejalashtirildi.

Bunda asosiy e'tibor korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining **asosiy yo'nalishlariga** qaratiladi, xususan

- aholining, shuningdek, vazirlik tarkibidagi barcha darajadagi xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

- vazirlik va uning tarkibidagi tuzilmalar faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarliligi prinsipini ta'minlash;

- ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi lozim bo'lgan ahamiyatga molik ma'lumotlarni o'z vaqtida belgilangan ro'yxat asosida joylashtirilishini nazorat qilish;

- amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish ishlari doirasida barcha

ichki normativ hujjatlarni inventarizatsiyadan o'tkazib, amaldagi qonunchilik va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda yangi hujjatlarni ishlab chiqish;

– jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan, korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni qonuniy ko'rib chiqib, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko'rish.

Yuqorida qayd etilgan asosiy yo'nalishlar bo'yicha ishlarni to'laqonli va sifatli bajarish keyingi hisobot davrida vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi baholash ko'rsatkichlarining yanada yaxshilanishiga omil bo'ladi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashishi
va komplayens nazorati bo'limi
yetakchi mutaxassisi**

09.01.2024



O.Samadov



09.01.24 d.